

MIRMUHSIN ASARLARIDA BARQAROR BIRIKMALARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI ("G'URBATDAGI ODAM" HIKOYASI MISOLIDA)

Soatova Gulbahor

*TerDU Lingvistika: o'zbek
tili yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

Annotasiya: *Mazkur maqolada badiiy asarlarda barqaror birikmalarning qo'llanilishi va uning o'ziga jihatlari, leksik-semantik xususiyatlari Mirmuhsinning "G'urbatdagi odam" hikoyasi asosida tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *leksik-semantik tahlil, barqaror birikmalar, ibora, maqol, matal.*

«Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi».[1] Ibora, maqol-matallar va hikmatli so'zlar barqaror birikmalar hisoblanadi. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavalantirishda frazeologik iboralarning o'rni, ahamiyati beqiyosdir. Ibora hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Bunga «umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin».[2] Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B. Yo'ldoshev tomonidan keng o'rganilgan.[3] Ammo Mirmuhsin asarlaridagi ibora, hatto boshqa jihatlari ham shu vaqtga qadar lingvopoetik tahlilga olinmagan.

Badiiy asarda qo'llanilgan iboralarni o'rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana

shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo'ladi.[4]

Xususan, atoqli adib Mirmuhsinning "G'urbatdagi odam" hikoyasining leksik fondini tahlil qilinganda, uning kichik hajmli asar bo'lishiga qaramasdan g'oyatda rang-barang va boy ekanligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, *Hamal kirdi-amal kirdi...* ; "*Quyoshni oyga alishtirib, xursand bo'lma*"- g'urbatda oh-voh urib yurgan onasi ham ozib-to'zib kasalga chalindi; *Otdim oshiq-gard keldi, ro'zg'orimga dard keldi...* bo'ldi, Lutfulla qal'a devoridan sakrab, oyog'i chiqdi; *O'limdan bo'lak hamma yaxshilikning barvaqt kelgani ma'qul*, deb ona-bola izg'iy berdi kabi maqol va matallar, shuningdek eskirgan va tarixiy so'zlar, varvarizmlar, shevaga oid so'zlar, ma'nodosh va ko'chma ma'noli so'zlarning o'ziga xos mahorat bilan ishlatilganini ko'rish mumkin. Eng e'tiborli jihati esa asar tilining iboralarga g'oyat boyligidir. Uni o'qir ekansiz har qadamda obrazli tasvirlashlar, barqaror birikmalarning har turlisi, iboralarning topib qo'llanilganligidir. "*Endi omadimiz kelib, ishimiz yurishib ketadi...*", degan kampir yana **tilini tishlab qoldi**. Lutfulla **hangu mang bo'lib qoldi**. Tumov odamning g'o'ng'illashidek-inglizlarning sergapligi juda **me'dasiga urgan**. ... Lutfullaning **ko'nglini ko'tardi**. " "*Baqoxo'jani bizga Xizr yubordi...*" deb xursand bo'lardi. ...xursand bo'lib ketganidan **bosartusarini bilmay qoldi**. Baqoxo'ja bergan kitobga ham **xayoli ketdi**; bu kitobni o'qib, **juda ta'bi tirriq bo'lib, boshi qotgan edi**. Lutfullaga muruvvat ko'rsatib yurgan ba'zi dehqonlar ham **yuzini teskari qildi**. [5] Asardan olingan ushbu misollarning barchasida qahramonlarning harakat va holatlari, ruhiy kechinmalari oddiy so'z bilan ifoda etish mumkin bo'lganidan ancha ta'sirliroq va obrazli tarzda ifodalangan. Bu esa yozuvchining lug'at fondi va tildan foydalanish, so'z qo'llash mahorati tahsinga sazovor ekanini isbotlaydi. Jim bo'lib qoldi deyish o'rniga tilini tishlab qoldi iborasida shunchaki gapirmasdan aolish emas, personajning ilojsizligi, g'oyat olir ahvoli ta'sirliroq ochib beriladi. Yoki hayron bo'lib qoldi o'rnida *hangu mang bo'lib qoldi*, parvo qilmadi, bepisandlik va yovqarashga o'tdini o'rniga yuzini teskari qildi iborasi ham xuddi shunday bo'yoqdorlik va o'ziga xoslikni ta'minlaydi. Ammo hali atoqli yozuvchimizning asarlari o'z bag'rida ne-ne marvaridlarni yashirib yotgan ulkan xazina bo'lib, o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Kelgusida tilshunoslar bu xazinani lingvopoetik jihatdan mufassal tadqiq etishlari, o'rganishlari mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили (АЛ 2-босқич талабалари учун дарслик) - Тошкент: Шарқ, 2002.- Б.103.
2. Шомаксудов А. ва б. Ўша асар. -Б.70.
3. Ёулдошев Б. Фразеологик услубият асослари. -Самарқанд, 1999.
4. Badiiy matnning lisoniy tahlili: Metodik qo'llanma/ M. Yo'ldoshev, Z. Isaqov, Sh. Haydarov: mas'ul muharrir N. M. Mahmudov. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. - 112 б.
5. Mirmuhsin. Asarlar 4-jild, "G'urbatdagi odam" hikoyasi. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. - 306-315б.